

Prus tili

Vikipediya, ochiq ensiklopediya

Prus tili — boltiq tillaridan biri, baʼzan uni nemis tilining prus shevalaridan farqlash uchun qad. prus tili deb ham atashadi. Prus tili Boltiqboʻyining jan.-sharqida, Visla daryosining sharqida tarqalgan; 2-ming yillikning boshlarida uning tarqalish hududi toʻrayadi. 18-asr boshida esa Prus tili ulik tilga aylanib, pruslarning avlodlari nemis tilida soʻzlasha boshlaganlar.

Prus tilining 14—16-asrlardan saqlanib qolgan yodgorliklari — 800 soʻzli nemischa-pruscha, 100 soʻzli pruscha-nemischa lugʻatlar, bir qator hujjatlar, sheʼriy parchalar hamda nemis tilining prus shevalari va polyak tilidan oʻtgan oʻzlashmalar bu til haqida muayyan tasavvur uygʻotadi.^[1]

Manbalar

1. OʻzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil



Ushbu maqolada Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) maʼlumotlaridan foydalanilgan.



Jahon tillaridan biri haqidagi ushbu maqola chaladir. Siz uni boyitib, (https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Prus_tili&action=edit) Vikipediyaga yordam berishingiz mumkin.

"https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Prus_tili&oldid=2009306" dan olindi

Bu sahifa oxirgi marta 16-Avgust 2018, 18:23 da tahrir qilingan.

Matn Creative Commons Attribution-ShareAlike litsenziyasi boʻyicha ommalashtirilmoqda, alohida holatlarda qoʻshimcha shartlar amal qilishi mumkin (batafsil).